

**ONA TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TOPSHIRIQLARNING  
O'RNI**

*Gafurova Elgiza Azizovna*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili*

*va adabiyoti universiteti*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi.*

*III bosqich talabasi*

*[elgizagafurova@gmail.com](mailto:elgizagafurova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili darслarida grammatik topshiriqlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari haqida bat afsil ma'lumot beriladi. O'quvchilarining nutqiy savodxonligini oshirish masalasi dolzarb masala hisoblanadi, ayniqsa, unda grammatik bilimlarni o'qitish muammosi dolzarb sanaladi. O'quvchilarining yozma va og'zaki nutqiga grammatik bilimlarni singdirishning turli xil metodlardan foydalanish maqolada bat afsil bayon etilgan.

**Annotatsion:** This article provides detailed information on the specifics of using grammatical tasks in native language lessons. The issue of improving students' verbal literacy is a topical issue, especially the problem of teaching grammatical knowledge in it. This article describes in detail the use of various methods of instilling grammatical knowledge in students' written and oral speech.

**Kalit so'zlar:** grammatik topshiriqlar, nutqiy savodxonlik, nutqiy savodxonlikni oshirish, grammatik bilimlar, grammatik bilimlarni o'qitish, yozma va og'zaki nutq, metod.

**Key words:** grammatical tasks, verbal literacy, improving verbal literacy, grammatical knowledge, teaching grammatical knowledge, written and oral speech, method.

Hozirgi paytda kundan-kunga o'quv dasturlari, darsliklari yangilanib bormoqda. Yangicha qarashlar yangi darslikdagi ma'lumotlar o'quvchilarga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

berilmoqda. Darsliklarda turli xil muammolar yuzaga kelmoqda. Ona tili ta'limidagi bunday muammoni hal etishning asosiy yechimi darsliklar masalasini tubdan isloh qilish, ulardagи ilmiy-nazariy faktlardagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, oddiydan murakkabga tamoyili asosida grammatik qoidalarni bosqichma-bosqich, uzviyilagini ta'minlagan holda o'quvchi ongiga singdirishdan iboratdir. Ta'limda o'rgangan nazariy bilimlarini o'quvchi amalda qo'llagandagina ona tili ta'limi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oladi.

Bugungi kunda ona tili ta'limi oldida turgan dolzarb masalalardan biri darsliklarda grammatik tushunchalarining chalkash holda berilishidir. Darsliklarni yaratish va ularni ta'lim sohasiga joriy etishda uzviylikning ma'lum darajada uzilib qolgani yuqoridagi kabi muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Dars va didaktik materiallar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishning cheklanganligi esa ta'lim sifatining past bo'lishiga olib keladigan salbiy jihatlardan biri hisoblanadi. Aynan keltirib o'tilgan manbaalarimiz o'quvchilarining bilish jarayonlarini, nuqt ko'nikmalarini, og'zaki va yozma nutq grammatikasini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarining bilim ko'nikma malakalarini yanada oshirish uchun darslarimizda turli xil ko'rinishdagi metod va usullardan foydalanishimiz darslarimizni yanada samarali qilishga yordam beradi. Misol uchun: *Audiomatnni tinglang*.

Mashhur Temuriylar tarixi muzeyi-Toshkentning diqqatga sazovor joylari sirasiga kirib, sayohatchilarining diqqat markazida turadi.

U1996-yilda butun dunyo bo'ylab taniqli bo'lgan buyuk sarkarda Amir Temur tavvaludining 660 yilligi sharafiga ochilgan. Muzeyning uch qavatli yumaloq binosi gumbaz bilan klassik sharqona uslubda bezatilan. Binoning ichki qismi marmar, noyob sur'atlar, betakror naqshlar va oltin suvi bilan bejirim bezatilingan. Zallar devorida Amir Temurning hayoti, shuningdek o'sha davrlarning atmosferasini aks ettiruvchi rasmlar freska tarzida aks etgan. Muzeyning eng betakror qismi – balandligi 8,5 metr bo'lgan billur qandil bo'lib undagi 106ming marjon ko'zlarni qamashtiradi.

Muzey eksponatlari tashrif buyuruvchilarga Temuriylar sulolasini davrida

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

O'zbekiston tarixi haqida ma'lumot beradi. Muzey fonida uch mingdan oshiq eksponatlar mavjud.bu yerda o'rta asrlarga oid zargarlik buyumlari,mehnat anjomlari va boshqa buyumlarni ko'rishingiz mumkun. Musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lgan Usmonning Qur'on nusxasi markaziy zalda saqlanadi. Temuriylarning sulolasiga tomonidan qurilgan mashxur inshootlarning maketi joy olgan.

Ushbu matnning topshirig'i quidagicha: *Audio matnni tinglang. To 'g'ri yozilgan so 'zlarni belgilang (ushbu topshiriq o'quvchilarining ilmiy savodxonligini shakllantirishga qaratilingan).*

Monarx

Monarh

Mashxur

Mashhur

Sayohatchi

Sayoxatchi

Hayot

Xayot

*Quidagi topshirig 'imizdagi so 'zlarbi audiomatndagi talaffuzi bilan solishtiring (Ushbu topshiriq 'imiz talaffuz va imlo bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiradi).*

Gumbaz.....

Armosfera.....

Anjom.....

Ekspozitsiya.....

Klassik.....

Diqqat.....

*Quyidagi topshiriqda audiomatndan olingan parchada imloviy, ishoraviy belgilarning mosini qo'ying va matnni ifodali o'qing.*

Muzeyning uch qavatli yumaloq binosi gumbaz bilan klassik sharqona uslubda bezatilgan binoning ichki qismi marmar, noyob sur'atlar, betakror naqshlar va oltin suvi bilan bejirim bezatilinga zallar devorida Amir Temurning hayoti, shuningdek o'sha davrlarning atmosferasini aks ettiruvchi rasmlar freska tarzida aks

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

etgan muzey eksponatlari tashrif buyuruvchilarga Temuriylar sulolasi davrida O‘zbekiston tarixi haqida ma’lumot beradi.

---

---

---

*(Yuqorida keltirilingan topshiriq o‘quvchilar imloviy va ishoraviy belgilarni to‘g‘ri shakllantirishga qaratilingan topshiriq hisoblanadi).*

*Quidagi topshiriqda matn tarkibidagi so‘zlarni (o‘z so‘z zaxirangiz va lug‘at yordamida) boshqa ma’nodoshi bilan almashtirib, matnni qayta tuzishga harakat qiling.*

Muzey ekspozitsiyasida Amir Temur va uning avlodlarining Yevropa mamlakatlari monarxlari bilan bo‘lgan ko‘plab yozishmalari, buyuk sarkarda tasvirlangan rasmlar, minatyuralar, mamlakatimizda Temuriylar sulolasi tomonidan qurilgan mashhur inshootlar maketi joy olgan.

---

---

---

*(Yuqorida keltirilingan topshiriqda o‘quvchilarning sinonim qo‘llash mahorati tekshiriladi).*

Demak, o‘qituvchi har bir darsiga ta’limiy yondashishi kerak. Mumkin qadar o‘qituvchi har bir darsda o‘quvchining yozma va og‘zaki nutqini grammatik tomonidan ham shakllantirish uchun ularni o‘z ustida ishlashga ko‘maklashishi lozim. Har bir jarayonda grammatik tushuncha va ulardan foydalanish zaruriyati singdirilib boriladi. Shuning uchun ham ona tili darsliklarida grammatik bilimlar mukammal ta’lim sifatida berilishi zarur.

### ***Foydalilanilgan adabiyotlar:***

1. Safarova R. Pedagogika ensiklopediyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, - T:; - 2015. 409-bet.
2. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

B. Ona tili. Umumiy orta ta'lif maktablarining 8-sinfi uchun darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi NMIU. 2019. 202-bet.

3. Hamroyev G'. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. (DSc) ... dis-ya. – Toshkent, 2022. – 72-b. 14

4. Usmanova Z.I. Ona tili darsliklari takomillashmoqda. “Экономика и социум” №4(83), 2021. 14-17-betlar.

5. Юсупова Т. А. To develop students' knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492

### **References:**

1. Safarova R. Pedagogika ensiklopediyasi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, - T:; - 2015. 409-bet.
2. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy orta ta'lif maktablarining 8-sinfi uchun darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi NMIU. 2019. 202-bet.
3. Hamroyev G'. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. (DSc) ... dis-ya. – Toshkent, 2022. – 72-b. 14
4. Usmanova Z.I. Ona tili darsliklari takomillashmoqda. “Экономика и социум” №4(83), 2021. 14-17-betlar.
5. Юсупова Т. А. To develop students' knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492